

**HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILINI O'QITISHDA O'QUV  
TOPSHIRIQLARDAN FODALANISH**

U.Abdurasulova.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Is'hoqxon Ibrat nomidagi

*Namangan davlat chet tillari instituti dotsenti, PhD*

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

*Received: 09.01.2025*

*Revised: 10.01.2025*

*Accepted: 11.01.2025*

*Mazkur maqolada uzlusiz ta'lif tizimida faoliyat samaradorligini oshirish, ta'lif mazmuni va shaklini sifat jihatdan yuqori pog'onalarga ko'tarish maqsadida yangi texnologiyalar, o'quv topshiriqlardan foydalanish va buning ta'lif sifati va samaradorligiga ijobiy ta'sir o'tkazishi haqida fikr yuritiladi.*

**KALIT SO'ZLAR:**

*o'zbek adabiy tili, til va ma'naviyat, uzlusiz ta'lif, yangi texnologiyalar, zamonaliv metodlar, o'quv topshiriqlar, ijodkorlik qobiliyati , grafik organayzer*

**KIRISH.** Mamlakatimiz miqyosida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar davrida til va ma'naviyat davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan masala bo'lib kelmoqda. Dunyo mamlakatlari bilan global sohalarda o'zaro aloqalar o'rnatilayotgan bugungi kunda har bir millatning mohiyatini o'zida aks ettiradigan til hodisalarini mukammal o'rganish shu xalqning ma'naviy qadriyatlari bilan bog'liq bilimlarni oshirishda muhim omildir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ma'naviy-ma'rifiy masalalarga doir har bir chiqishlarida ham ona tilimiz nufuzini oshirish, milliy qadriyatlarni saqlash, ajdodlar merosini qadrlash, ularning tafakkur mahsulidan unumli foydalanish, kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e'tibor qaratish ta'kidlanadi.

Uzlusiz ta'lif tizimida faoliyat samaradorligini oshirish, ta'lif mazmuni va shaklini sifat jihatdan yuqori pog'onalarga ko'tarish maqsadida yangi texnologiyalar, zamonaliv metodlar va topshiriqlardan foydalanish, shubhasiz, ta'lif sifati va samaradorligiga ijobiy


ta'sir o'tkazadi. Ayniqsa, hozirgi o'zbek adabiy tilini o'rganish jarayonida beriladigan topshiriqlar ta'lif oluvchilarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq vaziyatiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishi va rivojlantirishga qaratilishi lozim. Masalan, "Sifat" mavzusini o'tishda quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin.

**1-topshiriq.** Sifatning o'ziga xos ma'noviy turlarini quyida berilgan chizmadan foydalangan holda yozib chiqing. (1-rasmga qarang).



### 1-rasm.

**2-topshiriq.** Quyida berilgan chizma orqali asliy hamda nisbiy sifatlarga kiruvchi so'zlardan daftaringizga yozing (2-rasmga qarang). Nega ular aynan asliy va nisbiy sifatlar deya nomlanadi? Fikringizni misollar orqali tushuntirib berishga harakat qiling.



### 2-rasm.

**3-topshiriq.** Quyida berilgan sifat darajalari haqidagi ma'lumotlarni ko'rib chiqib, daftaringizga qayd etib qo'ying (3-rasmga qarang).



### 3-rasm.

**4-topshiriq.** “Iyerarxiya diagrammasi” grafik organayzerida ko'rsatib o'tilgan sifatlarning mavjud to'rtta darajalariga misollarni keltiring (4-rasmga qarang).



### 4-rasm.

Hozirgi o'zbek adabiy tili mashg'ulotlarida bunday topshiriqlardan foydalanish quyidagilarga imkon beradi:

- bilish ehtiyojini shakllantiradi;
- bilish faoliyatini faollashtiradi;
- fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi;
- axborot bilan ishlashni o'r ganishga bo'lgan ishtiyoqni oshiradi;

- individuallik darajasini oshiradi;
- ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi;
- materiallar mazmunining ketma-ketligi o‘quv materiallari doirasini kengaytiradi va oldingi bilimlarini mustahkamlanishiga yordam beradi;
- o‘zini-o‘zi nazorat qilishi, ya’ni baholash jarayonining omillarini kengaytiradi va h.k.

Bilamizki, “Olmosh” ham o‘ziga xos so‘z turkumi hisoblanadi. Predmet yoki uning biror belgisiga nom bo‘lmay, predmet yoki belgi tushunchasining mavjudligini ko‘rsatadigan mustaqil so‘zlar turkumi olmosh deyiladi. Olmoshlar nutqda ot, sifat, son o‘rnida keladi va gapda ularga xos vazifani bajaradi. Ushbu mavzuni mustahkamlashda, takrorlashda yana topshiriqlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

**1-topshiriq.** “Pillapoya”. Quyida ko‘rsatib o‘tilgan savollarga javob bering

Olmosh so‘z turkumi qaysi xalqlar tilshunosligida alohida so‘z turkumlari sifatida berilmagan?



“Yashirin ma’noli so‘z” sifatida izohlangan til birligi nima?



Olmoshlar qanday sintaktik vazifalarni bajarish xususiyatiga ega?



Shaxsga ishora qiluvchi olmoshlar qanday nom bilan nomlanadi?



Olmoshlarda qanday fonetik o‘zgarishlar uchraydi?



**2-topshiriq.** Quyida “Doira” orqali ifodalangan olmoshlarning ma’noviy turlariga kiruvchi misollarni keltiring.



**3-topshiriq.** “Mening oilam” mavzusida esse yozing. Yozayotgan ijodiy ishingizda, albatta, olmoshlardan unumli foydalanishga harakat qiling.

Yuqoridagi kabi topshiriqlardan foydalanish ta’lim oluvchilarda tezkorlik, zukkolik, mustaqil fikrlash hamda lingvistik kompetensiya elementlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, har bir usul yoki topshiriq muhim va zurur narsa. Lekin undan o‘z o`rnida va maqsadli foydalangandagina o‘z samarasini beradi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Абдурасулова У. Она тили таълимида ўқувчиларда морфологик компетентликни шакллантириш ва ривожлантиришнинг замонавий технологиялари. Пед. фан. бўй. фал. док... дис. – Наманган, 2021.
2. Xasanov A.A. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limida fanlararo aloqadorlikdan foydalanish imkoniyatlari // Pedagogik ta'lim, 2011. – № 5.
3. Хусанбоева Қ. Адабий таълимда мустақил фикрлашга ўргатиш асослари. Монография. –Тошкент, 2003
4. Қобилова З., Алиева Г. Адабиёт дарсларида фанларарабо интеграция // Тил ва адабиёт таълими, 2016. – № 1.

5. Baqoyev, Navrozjon (2023). O'ZBEK TILIDAGI "QO'L" SO'ZI VA U QATNASHGAN IBORALAR SEMANTIKASI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (2), 414-417.
  6. Bakoev, N., & Abdumatalova, M. (2023). YAPON TILIDAGI KANSAI SHEVASI VA O'ZIGA XOSLIGI. Interpretation and researches, 1(17).
  7. Bakoev, N., & Yuldasheva, S. (2023). YAPONIYA TA'LIM TIZIMI. Interpretation and researches, 1(17).
  8. Bakoev, N., & Ravshanov, S. (2023). YAPON TILIDAGI IYEROGLIFLAR. Educational Research in Universal Sciences, 2(16), 84-87.
  9. Bakoev, N., & Sheraliyeva, F. (2023). YAPONIYA TURIZM SOHASI VA RIVOJLANISHI. Interpretation and researches, 1(18).
  10. Bakoev , N. (2024). ONE OF MODERN LANGUAGE TEACHING METHODS IS TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) DISADVANTAGES AND ITS SOLUTIONS. Educational Research in Universal Sciences, 3(4 SPECIAL), 53–57. Retrieved from
  11. Umida Abdurasulova, & Bakoev Navruzjon (2024). TILLARNI O'RGATISHNING ZAMONAVIY USULLARI. Science and innovation, 3 (Special Issue 27), 84-87. doi: 10.5281/zenodo.11079778
  12. Bakoev, N. (2024). ONE OF MODERN LANGUAGE TEACHING METHODS IS COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING'S DISADVANTAGES.«. МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА.
  13. Navro'zjon, B. (2024). YAPON VA O 'ZBEK ADABIYOTIDAGI MIFOLOGIK OBRAZLAR. JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH, MODERN VIEWS AND INNOVATIONS, 1(2), 319-323.
  14. Abdurasulova, U. S. (2019). INNOVATIONAL APPROACH TO IMPROVE MORPHOLOGICAL COMPETENCE. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(7), 266-270.
  15. Абдурасулова, У. (2020). О 'QUVCHILARDA MORFOLOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, (SI-2№ 1).
  16. Sadullaevna, A. U. (2020). MODERN METHODS AND TECHNOLOGIES FOR DETERMINATION OF MORPHOLOGICAL COMPETENCE EFFICIENCY. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8.
  17. Abdurasulova, U. S. (2019). WAYS OF IMPROVING MORPHOLOGICAL COMPETENCE. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(3), 356-369.
-